

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI № 47

6«12»2022 yil.

221-5-74-OB/2022-son

SHER OFARIN XK «Sotuvchi» deb yuritiladi, ustavi asosida harakat qiluvchi rahbari **J.Yandashev** nomidan, bir tomondan **Nurota tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** nizomi asosida harakat qiluvchi, keyingi o'rinlarda «Sotib oluvchi» deb yuritiladi rahbari **R.I.Saidov** nomidan, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1.SHARTNOMA PREDMETI

1.1.Sotuvchi o'ziga tegishli tovarni Sotib oluvchiga mulk qilib topshirish, Sotib oluvchi esa ushbu tovarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2.Tovar haqida ma'lumotlar: Ushbu shartnomaning 1.3 qismidagi 1 jadvalida ko'rsatilgan.

1.3.

| | Tovar nomi | o'lchov birligi | miqdori | Narxi | Summasi |
|---|--|-----------------|---------|---------|------------|
| 1 | ЛЕКСАН (СОТОВЫЙ ПОЛИКАРБОНАТ) ТОЛЩИНОЙ 10 ММ | Metr.kv | 110 | 217 500 | 23 925 000 |
| | JAMI | | | | 23 925 000 |

1.4. Tovarining umumiy summasi **23 925 000 (yigirma uch million to'qqiz yuz yigirma besh ming) so'mni** tashkil etadi.

2. TO'LOV SHARTLARI

2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanganidan so'ng 10 bank kuni ichida Sotuvchiga oldindan 30% miqdorida pul to'laydi.

2.2. To'lov shakli: Pul Sotuvchining hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1.Sotuvchining majburiyatlari:

Shartnomaning 2.1 bandi Sotib oluvchi tomonidan bajarilgan sanadan boshlab tovarni 10 bank kun ichida Sotib oluvchiga topshirishi shart.

3.2.Tovarni va unga oid xujjatlarni ushbu shartnoma shartlari asosida Sotib oluvchiga topshirish.

3.3Tovarni shartnoma shartlariga javob beradigan miqdorda va sifatda, tashish jarayonida uning buzilishi, sinishi yoki yuq bo'lishi mumkinligini istisno qiladigan darajadagi idishlarda va joylashtirilgan holda topshirish.

3.4.Sotib oluvchining majburiyatlari:

Tovarni tovar ko'zdan kechirish muddati 1 kunlik muddatda ko'zdan kechirish. Tovarining mazkur shartnoma talablariga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda, Sotib oluvchi shu muddatda Sotuvchiga aniqlangan nomuvofiqliklar haqida ma'lumotlarni aks ettiruvchi xabarnoma (reklamatsiya) yuboradi.

Sotuvchi sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar yuborilganligi haqida xabarnomani olgan paytdan boshlab Tovarni almashtirish uchun muddat 2 kun ichida sifati lozim darajada bo'lmagan tovarni sifatligiga almashtirish.

4.TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1 Sotuvchi tovarlarni muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq berilmagan hollarda, tovar beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi joriy qiymatining maksimal miqdori 50 %idan oshmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq bermaslik oqibatida etkazilgan zararni koplashdan ozod etmaydi.

4.2 Agar berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi tovarlarni kabul qilish xamda ularning haqini to'lashni rad etib, etkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining yetkazilgan tovarning sifati yomon bo'lganda undiriladigan jarima miqdori 15 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab kuyilgan bulsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar etkazib berganlik uchun jarima etkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.3. Sotib oluvchi berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi sotuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining o'z vaqtida amalga oshirilmagan to'lov uchun to'lanadigan 0.4 foizi miqdorida penya, ammo kechiktirilgan to'lov summasining to'lanadigan penyani eng yuqori miqdori joriy summaning 50 foizidan ortiq bo'lmagan holda penya to'laydi.

4.4. Taraflarning javobgarlik holatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi» Qonuni bo'yicha amalga oshiriladi.

5. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

5.1 Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

5.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

6.1. Mazkur shartnomani bajarmaganlik va (yoki) lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi, hamda O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunining 25-32 moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlik, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176-1, 212-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

7. Korrupsiyaga qarsh shartlashuv

7.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlardagi Korrupsiyaga qarsh tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir birini ishonтиради va ularga amal qilishni kafolatlaydi.

7.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direkto, xodimlari, agentlari va boshqa vakillar) Ta'minotchi korxonaning hamda manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va ta'lablriga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq xolda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar yozma talabnoma bildirish tartibiga rioya qilingan xolda xal etiladi.

Bildirgan talabnomasiga qonunda belgilangan bir oylik muddat ichida javob olmagan yoki talablari qanoatlantirilmagan taqdirda, huquqi buzilgan deb xisoblovchi taraf nizoni hal qilish uchun da'vo arizasi bilan javobgar joylashgan tegishli sud organlariga murojaat qilishga haqli.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

9.2. Shartnoma yuridik xizmat ko'rsatish markazidan qonunga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa olingandan so'ng taraflar tomonidan imzolaniб g'aznachilik bo'linmasidan o'tgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi. Amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yilgacha qadar etib belgilandi.

10. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«IJROCHI»

SHER OFARIN XK

Manzil: Тошкент вилочт Зангиота тумани
Узгариш
Tel./faks
H/r 20208000500877728001
Bank nomi Milliy bank AJ Uchtepa filiali
MFO: 00918 INN: 305526994

Rahbar



J.Yandashev

«BUYURTMACHI»

Nurota tuman Obodonlashtirish


boshqarmasi

Manzil Nurota tuman M.Raximov ko'chasi 77
uy
Tel./faks-99879-523-18-51
X/r 100022860122387065200110001
Bank nomi :Markaziy bank Toshkent sh.
MFO 00014 INN 200030915

Rahbar

R.I.Saidov

M.O'.

| | | |
|--|--|--------------------------|
|  | Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | RUSTAM SAIDOV ILHOMOVICH |
| | Imzolangan sana | 06.12.2022 16:04 |
| | Hujjat kodi | IR5462876352 |
| | Hulosa kodi | ZK3812773108 |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

ZK3812773108

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Oldi-sotdi shartnomasining umumiy summasi 23 925 000 (yigirma uch million to'qqiz yuz yigirma besh ming) so'mni tashkil etadi. LEKSAN (sotoviy polikarbonat) sotib olish to'g'risida.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Nurota tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 01.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Nurota tuman yuridik
markazi
bosh yuriskonsulti:



A.SH.RAXMONBERDIYEV

06.12.2022